

O'QUVCHILARDA ESSE YOZISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

Nuriyeva Saida Saparboy qizi

ToshDO'TAU O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi, 3-kurs talabasi

nuriyevasaida04@gmail.com +998887440034

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quvchilar va mustaqil esse yozishni o'rganuvchilar uchun zarur bo'lgan nazariy ma'lumotlar berilgan. Insho va essening bir-biridan farqlanuvchi tomonlari yoritilgan. Esse turlari haqida ma'lumotlar ham mavjud bo'lib, argumentli essening yozilish tartibi ketma-ketlikda batafsil bayon qilingan. Essening nechta qismdan tarkib topishi, hajmi, mazmuni, to'g'ri dalillar keltirish masalalari aniq yoritib berilgan. Shakl va mazmun jihatdan mukammal bo'lgan esseni yozishga doir bir qator tavsiyalar keltirib o'tilgan. Maqola so'ngida argumentli essegga namuna ham keltirilgan.

Kalit so'zlar: esse, insho, uslub, argumentli esse, hajm, dalil, hayotiy tajriba, tezis, fakt.

Xalqaro integratsiyalashuv, ilm-fanning tez sur'atlarda rivojlanishi O'zbekistonda ta'limga yangicha yondashuvlarni tatbiq etishni taqozo qila boshladi. Shuningdek, so'nggi yillarda ona tilini o'qitishga qaratilgan e'tiborning kuchayishi va amaliy ehtiyojning oshib borayotgani zamonaviy tendensiyalarni amaliyotga joriy etish, samaradorligini oshirish zaruratini paydo qildi. Bu esa o'quvchilarda tildan amaliy foydalana olish, matn mohiyatini tushunish, tahlil qilish va mantiqiy xulosa chiqara olish, o'z fikrini asosli, izchil, ravon va estetik jihatdan boy tarzda og'zaki va yozma tarzda bayon qila olish ko'nikmalarini shakllantirishni hamda nutqiy ko'nikmalarining shakllanganlik darajasini baholashni ona tili ta'limining ustuvor masalalaridan biriga aylantirdi. Shu nuqtayi nazardan, o'quvchilarning yozma nutqini obyektiv baholash mexanizmlarini va zamon talablariga mos baholash vositalari va usullarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon tili o'qitish metodikasida o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish usul va vositalari,

xususan, esse va uning turlari, argumentli esse bir qator olimlarning ilmiy-metodik ishlarida alohida tadqiq qilingan. Jumladan, Roy Peter Clark qo‘llanmasida yozma nutqda ijodkorlik va samaradorlikni oshirishga yordam beradigan 55ta asosiy yozish strategiyasi va ulardan foydalanish shart-sharoitlari haqida to‘xtaladi.(Argumentli esse yordamida o‘quvchilarning yozma nutqini baholash ahamiyati. Abdiraimov Shohruh Samad o‘g‘li)

Esse – fransuzcha “tajriba” so‘zidan olingan bo‘lib, erkin kompozitsiyali nasriy adabiy janr. Publisistik yo‘nalishda yoziladigan, muallifning aniq mavzu yuzasidan shaxsiy fikr-mulohazalari yoritib berilgan ixcham ijodiy ish. Avvalo, esse yozishni o‘rganishdan oldin esse inshodan qanday farq qiladi degan savolga javob topishimiz lozim.

Insho:

1. Badiiy uslubda yoziladi.
2. Maxsus bilim talab qilmaydi.
3. Badiiy tasvir vositalari ustuvorlik qiladi.
4. Epigraf qo‘yiladi, reja asosida yoziladi.

Esse:

1. Publisistik uslubda yoziladi.
2. Hayotiy ko‘nikma talab qilinadi.
3. Argumentlardan unumli foydalaniladi.
4. Maqsadi o‘quvchilarda hayotiy vaziyat yuzasidan yozma munosabat bildirishga o‘rgatish.

Til ta’limida argumentli esse, interpretatsion esse, hikoyaviy esse, qiyosiy esse, sabab-oqibat essesi kabi bir qator esse turlaridan foydalaniladi. O‘zbek tilidagi manbalarda Baxtiyor Mengliyev boshchiligida tayyorlangan 10-sinf ona tili darsligida argunmentli esse izohi va unga namuna keltiriladi.Quyida esa argumentli esse yozish haqida batafsil ma’lumotlar va tavsiyalar beriladi.

Argumentli esse. Bunday esseda muallif biror masalada o‘z nuqtayi nazarini fakt va dalillar bilan qo‘llab-quvvatlaydi. Avval har ikki tomon uchun faktlar keltiradi, yakunda kuchli dalillar bilan o‘z pozitsiyasini himoya qiladi.(Baxtiyor Mengliyev, Shohrux Abdurahim, Klaraxon Mavlonova, Mansur Siddiqov, Saodat Atoyeva B. Mengliyev va boshq. (2022) Ona tili. 10-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, – B. 224)

Essening tarkibiy tuzilishi:

1. Kirish
2. Asosiy qism
3. Xulosa

Kirish

- 1.Mavzu qayta nomlanadi.
- 2.O‘quvchi mavzuga olib kiriladi.
- 3.Essening kirish qismi esse mavzusidagi so‘zlarning sinonimini qo‘llagan holda shakllantiriladi.
- 4.Tezis qo‘llanadi.

Kirish qismida essening mavzusi, u haqida tushuncha berib o‘tiladi. Kirishni ortiqcha cho‘zib yubormaslik kerak, chunki u umumiy matnning 10–20 foizini tashkil etadi.Ma’lumotlar bitta xatboshida izohlanadi.Ushbu qism o‘quvchini qiziqтира olishiga e’tibor qaratish zarur. Birinchi jumla e’tibor tortuvchi savol, qiziqarli fakt yoki mavzuning dolzarbligini aniq-ravshan ko‘rsatadigan fikr bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.Essening kirish qismida tezis qo‘llanadi. Tezis essening kalitidir. Butun boshli esseda nima demoqchi ekanligingiz aynan tezis qismida namoyon bo‘ladi.Tezis qismida sizning mavjud vaziyat yuzasidan munosabatingiz aks etadi. Tezisdan ta’sirchanlikni oshirish maqsadida ritorik so‘roq gaplardan unumli foydalaniladi.

Asosiy qism.

Asosiy qismda tezisni qo'llab-quvvatlaydigan, siz ilgari surayotgan g'oya yoki fikrni dalillaydigan fakt va ma'lumotlar keltiriladi va tahlil qilinadi. Uning hajmi essening turi, mavzuning ko'lamiga bog'liq. Odatda asosiy qism essening 60–70 foizini tashkil etadi. Masalan, o'quvchilar yozadigan 300 so'zli essening 180–210 so'zi asosiy qismga ajratilishi mumkin. Asosiy qism uchta xatboshidan iborat bo'lib, asosan birinchi va ikkinchi xatboshilarda esse mavzusida berilgan ikkita vaziyat bo'yicha yozuvchining fikr va dalillari bayon qilinadi. Uchinchi xatboshida esa yozuvchi yoqlayotgan vaziyat va uning izohi hayotiy dalillar asosida yoritiladi.

1-argumentni keltirish: mavzu yuzasidan birinchi tomonning qarashlarini ochib berishga qaratilgan dalillar keltirish, aniq izoh berish;

2-argumentni keltirish: mavzu yuzasidan ikkinchi tomonning fikrlarini aniq dalillar yordamida ochib berish;

3-xatboshida o'zingizning shaxsiy munosabatingizni (pozitsiyangiz) aniq asoslar yordamida yoritib berishingiz kerak

Xulosa. Xulosa – essening yakunlovchi qismi. U odatda butun matnning 10–15 foizini tashkil etadi. Xulosada tezisga, ya'ni bosh g'oyaga qaytiladi. Asosiy fikrlar o'zaro bog'lanib, fikr va qarashlar, dalillar nima uchun ahamiyatli ekani ta'kidlanadi. Asosiy qismda keltirilgan argumentlar asosida yakuniy xulosaga kelinadi va qat'iy hukm beriladi. Uni o'quvchida chuqur taassurot qoldiradigan fikr, ta'sirli gap bilan tugatish o'rinlidir.

Esse yozishdagi xatolar

1.Ortiqcha jimjimadorlik. Ko'p kitob o'qiganingizni yoki so'z boyligingizni atay ko'rsatishga urinmang. Insholarda kuzatiladigan badiiy bo'yoqdorlik, balandparvozlilik esseda qo'l kelmaydi.

2.Mavzuni yaxshi bilmaslik va hayotiy misollar keltirmaslik. O'zi yaxshi bilmagan odam boshqalarga nimani tushuntirishi, anglata olishi mumkin? Hayotiy misollar har doim

ham o‘rinli bo‘lmasligi mumkin. Lekin ko‘p hollarda o‘rinli bo‘ladi. U essening jozibadorligini, ishonchliligini oshiradi. Muallifni o‘quvchiga yaqinlashtiradi.

3.Fakt va ma’lumotlardagi xatolik. Tekshirilmagan yoki ishonchsiz manbalardan olingan faktlardan foydalanish so‘zingizning qadrini tushiradi.

4.Dalillashdagi xatolik. Fikrga aloqasiz yoki uni quvvatlantirmaydigan dalillar keltirmaslik kerak. Faqat boshqalarning fikrini keltirish, o‘z munosabati va pozitsiyasini ifodalamaslik esa esseni uning bosh xususiyati – shaxsiy munosabat, qarashni ifodalashdan mosuvo etadi.

5.Qaytariqlar. So‘z, jumla va fikrlarni qaytarish, aytib bo‘lingan fikrni keyinroq boshqa shaklda ifodalash holatlari muallifning malakasi yuqori emasligini ko‘rsatadi.

6.Mantiqiy ketma-ketlikning yo‘qligi. Jumla va fikrlar bir-biriga bog‘lanishi kerak. Tomdan tarasha tushganday boshqa gapga o‘tib ketish essening yaxlitligiga putur yetkazadi.

7.Mavzudan chetga chiqish. Mavzuga bevosita aloqador bo‘lmagan masalalarga o‘tib ketish, “o‘tlash” essening hajmini o‘rinsiz oshiradi, o‘quvchining vaqtini o‘g‘irlaydi.

8.Xulosalashdagi xatolar. Xulosa bermaslik, matnda oldin aytib o‘tilgan fikrlarni shunchaki qaytarish essening muhim va yakunlovchi qismi nuqsonli chiqib qolishiga olib keladi.

Matn sifatini oshirish uchun tavsiyalar

1.Esse yozishdan oldin mavzuni kengroq o‘rganing. Tushunmagan narsalaringizga aniqlik kiriting. Detallar, atamalar, fakt va raqamlarni tekshiring.Muammoning mohiyatini qisqacha bayon qiling, fakt va dalillar keltiring. Olimlar, mutafakkirlar va soha mutaxassislarining fikrlaridan iqtiboslar topishga harakat qiling. Iqtiboslarning aniqligiga diqqat qaring.

2.Ortiqcha kirish so‘zlar, yuk tashimaydigan ifodalardan voz keching. Bunday ifodalar har qanday matnda, jumladan, esseda ham foydasiz. Masalan: “shuningdek, shu

bilan birga, shuni alohida ta'kidlash lozimki, aytib o'tish joizki, hammamizga ma'lumki, olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar natijasida, keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda" kabi so'z va iboralar aksariyat o'rinlarda hech qanday foydali ish bajarmaydi.

3.Sodda va qo'shma gaplardan aralash foydalaning. Jumlar bo'ldi-bo'ldi, qildi-qildi, edi-edi kabi bir xil shakldagi fe'llar bilan tugamasin. Orada ot kesimli gaplar ishlatilg. So'z takroridan qoching.Uslub va individuallik masalasi ham muhim. Yozgan essengizni ovoz chiqarib o'qib ko'ring. Shunda uning kamchiliklarini, ifodadagi g'alizliklarini aniqlash osonlashadi.

4.Imkoni bo'lsa, bir muddatdan so'ng essenini qayta ko'rib chiqing. Agar essenini imtihonda birdaniga yozmayotgan bo'lsangiz, ikki-uch kundan so'ng uni yangilangan qarash bilan o'qing. Oldin ko'rmagan xato va nuqsonlarni albatta topasiz.Qisqa, lo'nda va aniq yozishga intiling.

5.Fakt va raqamlar aniqligiga e'tibor bering. "Olimlarning fikricha", "O'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra" kabi iboralarni aniqroq shaklda bering. Masalan, "Illinoys universiteti olimlari 2020-yili o'tkazgan tadqiqot natijalariga ko'ra", "YUNISEF"ning 2017-yilgi hisobotida aytilishicha" kabi jumlar fakt va dalillarni ishonchli manbadan olganingizni ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Abdiraimov. "Argumentli esse yordamida o'quvchilarning yozma nutqini baholash ahamiyati" maqolasi.
2. B.Mengliyev, Sh.Abdurahimov , K.Mavlonova, M.Siddiqov, S.Atoeva. Ona tili.
10-sinf uchun darslik.Toshkent- 2020. Respublika ta'lim markazi. B-224.
3. O.Madayev, A.Sobirov, Z.Xolmanova, Sh.Toshmirzayeva, G.Ziyodullayeva, M.Shamsiyeva. "Yozma ish turlari". "Turon zamin ziyo" . Toshkent-2017
4. <https://uzlib.uz/uz/article/unilibraryuz>
5. <https://media.natlib.uz>